



**MINISTRY OF HIGHER EDUCATION,  
SCIENCE AND INNOVATIONS OF THE  
REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

**BUKHARA STATE UNIVERSITY**

**“ISSUES AND CHALLENGES OF MODERN  
LINGUISTICS IN NEW UZBEKISTAN:  
LINGUOCULTUROLOGICAL,  
PRAGMALINGUISTIC,  
NEUROPSYCHOLINGUISTIC AND  
LINGUOFOLKLORISTIC APPROACHES”**

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC &  
THEORETICAL CONFERENCE**



**PKP|INDEX**

**BUKHARA -2024**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,  
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**“YANGI O‘ZBEKISTON TILSHUNOSLIGIDA  
LINGVOKULTUROLOGIYA, PRAGMALINGVISTIKA,  
NEYROPSIXOLINGVISTIKA VA LINGVOFOLKLORISTIKA  
SOHALARINING DOLZARB MUAMMOLARI”**

*(Filologiya fanlari doktori, professor R.R. Boboqalonov tavalludining 65 yilligiga bag' ishlanadi)*

**XALQARO ILMIY-NAZARIY ANJUMAN  
MATERIALLAR TO‘PLAMI**

©Buxoro davlat universiteti  
©Fransuz filologiyasi kafedrası

**Buxoro-2024**

UO'K 81'373

81.1-3

G 13

**Yangi O'zbekiston tilshunosligida lingvokulturologiya, pragmalingvistika, neyropsixolingvistika va lingvofolkloristika sohalarining dolzarb muammolari (Filologiya fanlari doktori, professor R.R.Bobokalonov tavalludining 65 yilligiga bag'ishlanadi):** maqola va tezislar to'plami, to'plovchi hamda nashrga tayyorlovchilar: O.O.Bobokalonov, N.B.Kuldasheva, N.N.Abdullayeva; Buxoro; "Durdona" nashriyoti, 2024 yil, 856 bet.

**KBK 81.1-3**

❖ Filologiya fanlari doktori (DSc), professor **R.R. Bobokalonov** umumiy tahriri asosida

**Bosh muharrir:**

O.O. Bobokalonov, f.f.f.d. (PhD), dotsent

**Mas'ul muharrirlar:**

M.H.Xamidova, f.f.f.d. (PhD), dotsent

M.M.Jo'rayeva, f.f.f.d. (PhD), dotsent

D.B.Narzullayeva, Fransuz filologiyasi kafedrası tadqiqotchisi

**Texnik muharrirlar:**

B.Q.Akramov, Fransuz filologiyasi kafedrası tadqiqotchisi

R.O.Bobokalonov, Fakultetlararo chet tillar kafedrası tadqiqotchisi

S.T.Temirov, Fransuz filologiyasi kafedrası ilmiy-texnik assistenti

**Tahririyat manzili:**

Buxoro davlat universiteti, M.Iqbol ko'chasi 11-uy

<b>Tashkiliy qo'mita manzili:</b>	<b>Tashkiliy qo'mita mas'uli:</b>
<b>Buxoro davlat universiteti</b> <b>Buxoro shahar</b> <b>M.Iqbol ko'chasi 11-uy.</b> <b>Tel: <a href="tel:+998652212914">(+998) 65 221-29-14</a></b> <b>Fax: <a href="tel:+9983652212707">8(365) 221-27-07</a></b> <b>Elektron pochta manzili:</b> <b><a href="mailto:buxdu_rektor@buxdu.uz">buxdu_rektor@buxdu.uz</a></b>	<b>Fransuz filologiyasi kafedrası mudiri</b> <b>Bobokalonov Odilshoh Ostonovich</b> <b>Tel: <a href="tel:+998912423332">(+998) 91 242-33-32</a></b> <b><a href="tel:+998973043332">(+998) 97 304-33-32</a></b> <b>Telegram ID: <a href="https://t.me/OdilshohOstonovich">@OdilshohOstonovich</a></b> <b>Elektron pochta manzili:</b> <b><a href="mailto:o.o.bobokalonov@buxdu.uz">o.o.bobokalonov@buxdu.uz</a></b>

*O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 20-martdagi 76-son farmoyishining 1-ilovasi "2024 yilda xalqaro miqyosida o'tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasi"ga ko'ra anjuman o'tkazildi va chop etildi*

**ISBN 978-9943-6197-4-6**



O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Buxoro davlat universiteti tomonidan "Yangi O'zbekiston tilshunosligida lingvokulturologiya, pragmlingvistika, neyropsixolingvistika va lingvofolkloristika sohalarining dolzarb muammolari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy anjuman 2024-yil 16-17-aprel kunlari o'tkazildi. Mazkur Xalqaro anjumanimizda Oliy o'quv yurtlari hamda ilmiy-tekshirish instituti olimlari, yetuk mutaxassislar, stajyor-tadqiqotchi-izlanuvchilar, talabalar, xorijiy mamlakat olimlari ishtirok etishdi.

Anjuman maqsadi tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik, pragmlingvistika, neyropsixolingvistika va lingvofolkloristika sohalaridagi taniqli tadqiqotchilar va mutaxassislarni birlashtirgan yuqori darajadagi akademik almashinuvlar ta'minlashdan iborat.

### **Anjumanda muhokama qilingan yo'nalishlar va sohalar:**

#### **❖ TILSHUNOSLIK**

- ❖ Nazariy tilshunoslik
- ❖ Amaliy tilshunoslik
- ❖ Qiyosiy tilshunoslik
- ❖ Chog'ishtirma tilshunoslik
- ❖ Umumiy tilshunoslik
- ❖ Matn tilshunosligi
- ❖ Zamonaviy tilshunoslik
- ❖ Tarixiy tilshunoslik

#### **❖ ADABIYOTSHUNOSLIK**

- ❖ Lingvofolkloristika
- ❖ Lingvopoetika

#### **❖ TIL VA PEDAGOGIK TA'LIM**

- ❖ Pedagogika
- ❖ Didaktika

- ❖ Lingvomadaniyatshunoslik
- ❖ Psixolingvistika
- ❖ Neyrolingvistika
- ❖ Neyropsixolingvistika
- ❖ Pragmlingvistika
- ❖ Etnolingvistika
- ❖ Sotsiolingvistika
- ❖ Kognitiv lingvistika

- ❖ Lingvostilistika
- ❖ Narratologiya


- ❖ Metodologiya
- ❖ Metodika

<i>Nishonov P.P.</i> Rus va slavyan antroponimlarining milliy – madaniy qirralari.....	169
<i>Sanoqulov J.X.</i> Zamonaviy tilshunoslik multimadaniy muhitining fransuz nutqidagi ta’sir ko’lami.....	173
<i>Sanakulov H.Kh.</i> Évolution sémantique des termes psychologiques en français au cours des dernières décennies.....	181
<i>Sayfullayev B.N. &amp; Abdusalomova M.A.</i> O‘zbek va fransuz tillarida so‘roq gaplarning yasalishi va o‘zlashtirmalik xossalari.....	190
<i>Sayfullayev B.N. &amp; Isroilova X.N.</i> O‘zbek va fransuz tillari ot so‘z birikmali gap va o‘zlashtirmalik xossalari....	194
<i>Sayfullayeva R.R.</i> Milliy tilimizni yuksaltirish davri .....	199
<i>Sodiqov M.S.</i> Fransuz va o‘zbek tillarida tejamkorlik va ortiqchalikning ifodalanishi.....	204
<i>Tairova M.Kh. &amp; Hakimov B.S.</i> Caractéristiques sémantiques des termes pharmaceutiques en langues russe et français.....	208
<i>Teshaeva D.</i> Linguistic and cultural challenges in the field of linguoculturology in contemporary Uzbekistan.....	213
<i>To‘yboeva Sh. R. &amp; Normurotova F.O’.</i> Qiyosiy tillar kesimida ko‘plik kategoriyasining badiiy kontekstda namoyon bo‘lishi.....	216
<i>Turgunbaeva G.T.</i> Analyzing gastronomic tourism terms and conditions.....	222
<i>Умурзакова Ш.Г.</i> Направления современной лингвистики: язык и культура.....	228
<i>Usmonova N.S.</i> Fransuz an’alarida “Vodiy nilufari - le muguet de mai”ning madaniy-tarixiy timsoli.....	232
<i>Valieva N.Z</i> Linguocultureme as a fundamental concept in Linguoculturology (on the material of English, Russian and Uzbek languages).....	237
<i>Xolova Sh.D. &amp; Rahmatova M.H.</i> Salbiy emotiv frazemalar tarjimasida lingvomadaniy xususiyatlar.....	241
<i>Xusinova Sh.X.</i> Sociocultural significance and communicative function of nicknames in the English language...245	
<i>Yakubov J.A.</i> Ayollar nutqidagi “va’da berish” leksemasi tarjimada ifodalanishining funksional semantik xususiyatlari .....	250
<i>Yang Bai (Ян Бай)</i> Анализ национально-культурных особенностей фразеологизмов с компонентом-лошадью в китайском языке.....	255
<i>Yaxshiboev M.D.</i> Siyosiy lingvistikaning rivojlanish bosqichlari.....	261
<i>Zokirova D.M., Djumabaeva M.A. &amp; Salimova M.S.</i> Cognitive linguistics and Concept.....	266
<i>O‘rinboeva G.D.</i> Turli tizimli tillarda so‘z fonologik strukturasi xususiyatlari qiyosiy tadqiqi (ingliz va o‘zbek tillari misolida).....	273
<b>2-SHO‘BA. NEYROPSIXOLINGVISTIKA VA PRAGMALINGVISTIKA DOIRASIDAGI ILMIY IZLANISHLAR.....</b>	<b>279</b>
<i>Akramov B.Q. &amp; Abdullayeva A.U.</i> Interprétation sociale du lexique français des marchés et des processus commerciaux.....	280
<i>Akramov B.Q. &amp; Muhidov A.Sh.</i> Caractéristiques étymologiques de la terminologie commerciale en français.....	287
<i>Adizova O.I. &amp; Gulyamova R.K.</i> Fransuz tilida “fidélité” (sadoqat) termini ishtirokidagi iboralarning leksik-semantik tahlili.....	294
<i>Adizova O.I. &amp; Rahmatova Z.M.</i> Fransuz tilida sifatlarning grammatik kategoriyalari.....	300
<i>Alimova S.S.</i> Murojaat shakli sifatida qo‘llaniluvchi turdosh otlarning pragmatik aspekti.....	305

<i>Asadov T.H.</i> Etnofrazemalar lingvokulturologiyaning obyektii sifatida.....	309
<i>Asronova M.M.</i> The importance of determining the individuality of discourse or the topic area of discourse.....	316
<i>Axmedov Sh.I.</i> The emergence of the term neologism and its various forms.....	322
<i>Ахунжонова Х.А. &amp; Бурхонова Г.Г.</i> Особенности способов образования медицинских терминов на основе латинского языка.....	326
<i>Bobokalonov O.O., Suvonova M.G' &amp; Madiyorova Ch.Z.</i> Approche cognitive de la sémantique des termes psychologiques en français.....	334
<i>Bobokalonov R.O.</i> Pragmatic analysis of medical terminology in French and Uzbek languages.....	343
<i>Bobokalonov R.R.</i> Imo-ishora tizimi va tana tili modeli.....	352
<i>Bobokalonov R.R. &amp; Bobokalonov P.R.</i> Role of smiling in interpersonal relationships, smiling and laughter symptoms.....	360
<i>Bobokalonov R. &amp; Klimentova Z.</i> Neuropsycholinguistic problems of semantic-functionally formed speeches.....	368
<i>Bobokalonov R.R. &amp; Saidova O.S.</i> Neuropsycholinguistics: motivational competence in the prevention of stroke in charismatic individuals.....	375
<i>Ergasheva G.I. &amp; Mahmudova R.Z.</i> Neyrolingvistikaning jamiyatimiz taraqqiyotidagi tutgan o'rni.....	380
<i>Фарходова М.</i> Психолингвистическая характеристика основных особенностей французского дискурса моды.....	385
<i>Jabbarova M.X. &amp; Rahimova M.F.</i> Ayol obrazidagi paradigmatic munosabatlar.....	390
<i>Жунусова Ж.Н.</i> Современные двуязычные словари коммуникативной направленности в аспекте прагмалингвистики.....	396
<i>Jo'rayeva M. &amp; Baxtibayeva A.</i> Reklama matnlarining fransuz tilidan o'zbek tiliga tarjimasidagi jozibadorlik.....	401
<i>Kamolova S.J.</i> Utilisation des noms personnels et recherché intentionale du sens éponymique.....	405
<i>Narzoullaeva D.B. &amp; Sharipboyeva D.B.</i> Exploration des traductions du Coran: Étude scientifique, impact culturel et historique.....	410
<i>Nasimova F.S. &amp; G'aipova G.X.</i> Fransuz gastronomik terminosferasining o'ziga xos xususiyatlari.....	415
<i>Nasibboyeva M.</i> Extralinguistic factors of economic vocabulary development: linguistic and cultural aspect.....	420
<i>Rustamova F.I. &amp; Kuchimova K.Y.</i> Diskurs, nutq va astronomik terminlar talqini.....	426
<i>Ro'ziyev Y.B.</i> Nemis adabiy tilida o'zlashtirma nutq.....	431
<i>Sobirova D.R.</i> Functional-pragmatic characteristics and classification of advertising.....	435
<i>Xamidova M.H. &amp; O'ktamova G.X.</i> Fransuz tilida vaqt tushunchasining leksik ifodalanishi.....	441
<i>Хаятова Н.И. &amp; Бекмуродова С.Ш.</i> Характерные черты сленга: сленг в смс и грамматические средства выражения.....	445
<i>Xolova Sh.D. &amp; Mahmudova D.O.</i> Ijobiy emotiv frazemalar: komponentlar tarkibi va tahlili.....	456
<i>Shahabitdinova Sh.H. &amp; Davlatova H.U.</i> Muloqotda gender xususiyatlarining aks etishi.....	460
<b>3-SHO'BA. ZAMONAVIY ADABIYOTSHUNOSLIK VA LINGVOFOLKLORISTIKA TADQIQOTLARI</b> .....	465
<i>Abdullayeva N.N &amp; Yakubova A.O.</i> Caractéristiques nationales des proverbes français.....	466
<i>Абдуллаева Н. &amp; Мухамадова Г.</i> Французская культура: пословицы, с благополучия к искусству жизни.....	471
<i>Абдуллаева Н. &amp; Тешаева М.</i> Тематические сходства узбекских и французских пословиц.....	476

## SALBIY EMOTIV FRAZEMALAR TARJIMASIDA LINGVOMADANIY XUSUSIYATLAR



 Buxoro, O‘zbekiston



**Xolova Shahnoza Davronovna**

*Mustaqil tadqiqotchi, fransuz tili o‘qituvchisi*

*Fransuz filologiyasi kafedrası*

*Xorijiy tillar fakulteti*

*Buxoro davlat universiteti*

 [sh.d.xolova@buxdu.uz](mailto:sh.d.xolova@buxdu.uz)

 <https://scholar.google.com/citations?user=Vk7HgWwAAAAJ&hl>



**Rahmatova Muhabbat Hazrat qizi**

*Tarjima nazariyasi va amaliyoti (fransuz)*

*ta’lim yo’nalishi 4-bosqich talabasi*

*Fransuz filologiyasi kafedrası*

*Buxoro davlat universiteti*

 [ismatovagulniso46@gmail.com](mailto:ismatovagulniso46@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada fransuz tilida qo‘llaniladigan salbiy his-tuyg‘ularni ifodalovchi iboralar va ularning o‘zbek tiliga tarjimasi haqida so‘z boradi. Hissiy ifodalarga misollar keltirilib, ularni o‘zbek tiliga tarjima qilishda e’tiborga olinadigan jihatlar sanab o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** ifoda, salbiy his, tarjima, frazeologik birlik, ekvivalentlik, farq.

**Abstract:** This article talks about expressions expressing negative feelings used in French and their translation into Uzbek. Examples of emotive expressions are given, and aspects to be taken into account when translating them into Uzbek are listed.

**Keywords:** phrase, negative feeling, translation, phraseological unit, equivalence, difference.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются выражения, выражающие негативные чувства, используемые во французском языке, и их перевод на узбекский язык. Приводятся примеры эмотивных выражений и перечисляются аспекты, которые необходимо учитывать при их переводе на узбекский язык.

**Ключевые слова:** фраза, негативное чувство, перевод, фразеологическая единица, эквивалентность, различие.



## **Kirish.**

Frazeologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari madaniyat va o‘z ona tilida so‘zlashuvchilarning bu iboralarni kundalik hayotda qo‘llash usuli bilan chambarchas bog‘liq. Maqol, idioma va metafora kabi bu frazeologik birliklar o‘ziga xos madaniy-ijtimoiy jihatlarni ifodalovchi tilning muhim elementlari hisoblanadi. Shuning uchun ularni tushunish asl madaniyatni chuqur bilishni talab qiladi. Misol uchun, idiomalar ko‘pincha ma‘lum bir til jamoasining madaniyatida kuchli ildiz otadi. Ushbu madaniyatning an‘analari, e‘tiqodlari va qadriyatlarini hisobga olmasdan turib, ularning ma‘nosini to‘liq tushunib bo‘lmaydi. Ushbu madaniy alomatlarni tushunish ushbu iboralarni ma‘lum bir kontekstda to‘g‘ri va xatosiz ishlatish uchun juda muhimdir. Bundan tashqari, frazeologik birliklar tarixiy voqealar, xalq ertaklari yoki mifologik shaxslar kabi o‘ziga xos madaniy ma‘lumotlarni ham aks ettirishi mumkin. Ushbu madaniy belgilarni tushunish iboraning ma‘nosini to‘liq anglab yetishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Tuyg‘ular - bu insonning haqiqatdagi narsa va hodisalarga, odamlarga va o‘ziga bo‘lgan munosabatidan kelib chiqadigan tajribalari, deb ta‘rif berish mumkin. Shaxs jonli mavjudot va jamiyat a‘zosi bo‘lib, shaxs sifatida o‘zini tevarak-atrofdagi narsa va hodisalarga munosabatini xolisona aks ettiradi. Inson munosabatlari insonning miyasida his-tuyg‘ularni, hissiy holatlar va yuqori ichki tajribalar shaklida aks ettiriladi, ular his-tuyg‘ularni yaratadi. Tuyg‘u tushunchasi kundalik hayotda va ilmiy manbalarda turli ma‘nolarda qo‘llaniladi.

## **Natijalar va tahlillar.**

Fransuz va o‘zbek tillarida salbiy his-tuyg‘ularni ifodalovchi frazemalarning tarjima ekvivalentligini tahlil qilish ikki tilning lingvistik va madaniy xususiyatlarini chuqur anglashni talab qiladi. Salbiy his-tuyg‘ularni ifodalovchi iboralar g‘azab, nafrat, jahl, norozilik va boshqalar kabi his-tuyg‘ularni bildiradigan turg‘un birikmalardir. Ushbu iboralar tilning ajralmas qismi bo‘lib, har bir millat madaniyatida salbiy his-tuyg‘ularni his etish va ifodalash usulini aks ettiradi. Fransuz tili g‘azabni ifodalovchi iboralarga boy bo‘lib, so‘zlovchilarga o‘z his-tuyg‘ularini kuch va shiddat bilan ifodalash imkonini beradi. G‘azabni ifodalash uchun ishlatiladigan umumiy iboralar orasida "*être hors de soi*" birikmasini uchratish mumkin, bu butunlay jahl otiga mingan yoki g‘azablangan holatni anglatadi. Xuddi shunday, "*être furieux comme un pou*" iborasi kuchli va boshqarib bo‘lmaydigan g‘azabni anglatadi.

"*en vouloir à quelqu’un*" yoki "*avoir une dent contre quelqu’un*" iboralari insonga nisbatan nafrat yoki gina saqlash tuyg‘usini his qilishni anglatadi. Buning sababi o‘tmishdagi vaziyat yoki hal qilinmagan nizo bo‘lishi mumkin. Ushbu frazemani tahlil qilish so‘zlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma‘nosini hisobga olgan holda amalga oshirilishi mumkin. "*En vouloir à quelqu’un*" bu biror odamga nisbatan

nafrat va qilgan ishi uchun undan g‘azablanish tuyg‘usini anglatga, “ *avoir une dent contre quelqu’un* ” iborasining kelib chiqishi O‘rta asrlarga borib taqaladi, u kimgadir nisbatan gina saqlash, undan o‘ch olish istagini, g‘azab darajasi shu qadarki, tishlab olishga tayyor bo‘lgan emotsiyani anglatadi. Bu iboralar birovga nisbatan salbiy hissiy holat, norozilik yoki g‘azabni aks ettiradi. Ular muloqtdagi odamlar o‘rtasidagi munosabatlardagi keskinlikni yoki hal qilinmagan nizolarni ta’kidlaydilar. Ushbu frazemalar fransuz tilida g‘azabning turli darajalarini tasvirlash va ifodalash uchun ishlatiladi. Ular tilni boyitib, ushbu tilda so‘zlashuvchi jamiyatda g‘azab lingvomadaniyatini aks ettiruvchi frazeologik birliklar tarkibiga kiradi. Salbiy emotiv frazemalar odatda qayg‘u, g‘azab, qo‘rquv yoki umidsizlik kabi salbiy his-tuyg‘ularni ifodalovchi lingvistik iboralardir. Ushbu so‘z qo‘shilmalari ko‘pincha qiyin yoki og‘riqli vaziyatlarni ifoda etish uchun ishlatiladi. Ularning o‘zbek tilida o‘z ekvivalentlari borligini ta’kidlashimiz mumkin, masalan: *être rouge de colère* – g‘azabdan qizarmoq, *avoir la rage* – g‘azabdan quturib ketmoq, *avoir la dent contre qqn* – tish qayramoq, *être furieux (énervé, exaspéré)* – jahl qilmoq, g‘azablanmoq, *avoir cran = à bout = à bout de nerfs* – toqati toq bo‘lmoq, ... *Ça m’énervé au plus haut point !* – bu meni qattiq g‘azablantiryapti, *être hors de soi* – g‘azabdan o‘zini yo‘qotmoq, *ne plus supporter plus (Je ne supporte plus ça !)* – ortiq toqati yetmaslik, *en avoir ras-le-bol* – joni xalqumiga kelmoq, *C’est inadmissible !* – bunga chidab bo‘lmaydi ! *bouillonner de rage* – g‘azabdan quturmoq, *Ça me met en rogne* – g‘azabim qaynayapti ! *avoir les nerfs à vif* – asabi tarang bo‘lmoq, *être en colère noire* – jahl otiga minmoq,...

Ushbu iboralarni fransuz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilishda ikki til o‘rtasidagi madaniy farqlarni hisobga olish zarur. Masalan, ayrim fransuz iboralari diniy yoki tarixiy ma’noga ega bo‘lishi mumkin, ularning o‘zbek tilida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekvivalenti yo‘q. Shuning uchun tarjimon asl iboraning ma’nosi va hissiyotini saqlab qolish uchun madaniy jihatdan mos ekvivalentlarni topishi kerak.

Bundan tashqari, ijtimoiy me’yorlar va lingvistik konventsionaliyalar ham har bir tilda hissiy iboralarning qanday qabul qilinishiga ta’sir qilishi mumkin. Masalan, fransuz tili so‘zlashuv uslubidagi ayrim iboralar o‘zbek tilida qo‘pol yoki norasmiy deb hisoblanishi mumkin, bu esa tarjima vaqtida nozik moslashishni talab qiladi.

## Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, fransuz va o‘zbek tillarida salbiy his-tuyg‘ularni ifodalovchi frazemalarning tarjima ekvivalentligini tahlil qilish har bir tilda semantika, madaniyat va his-tuyg‘ularning ifodalanishini chuqur anglashni talab qiladi. Tarjimonlar nazarda tutilgan konnotatsiyalarga e’tiborli bo‘lishi va ko‘zlangan tilda bir xil hissiy kuchni yetkazib beradigan ishonchli tarjimani yaratish uchun alohida e’tibor bilan ishlashi kerak.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Alain Rabatel, *Emphatic et émotions argumentées en discours*, E.M.E.&Intercommunications spri, 2013, Bruxelles-Fernelmont.
2. Claire Miquel, *Communication progressive, Niveau avancé*. CLE International, SEJER/Paris, 2017. P 167-168.
3. Jean-Claude Anscombe, Salah Mejri, *Le figement linguistique :la parole entravée*, Paris : Honore Champion, 2011, p.41-61.
4. RADJABOVICH, BOBOKALONOV RAMAZON, BOBOKALONOV ODILSHOH OSTONOVICH, and NARZULLAEVA DILFUZA BAFOEVNA. "Differential, Communicative and Neuropsycholinguistic Problems of Semantic Functionally Formed Speeches in Unrelated Languages." *Journal of Survey in Fisheries Sciences* 10.2S (2023): 1363-1375.
5. Xolova, S. (2023). Лингвистические особенности позитивно-эмотивных фраз во французском и узбекском языках. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz)*, 43(43). извлечено от [http://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/11183](http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/11183)
6. Kholova Shahnoza Davronovna. (2022). SOME FEATURES OF CERTAIN PHRASEOLOGICAL UNITS TRANSLATION USED IN FRENCH LITERATURE OF THE NINETEENTH CENTURY. *European Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 9, 70–74. Retrieved from <http://ejird.journalspark.org/index.php/ejird/article/view/177>
7. Sh.D.Xolova , “Frazеологик birlik-frazema-frazеологизм : tasnif va tadqiqot tahlili”, Buxoro davlat universiteti Ilmiy axboroti, 2022-yil dekabr, 6/2022 son, 92-97-betlar. [https://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/8679](https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/8679)
8. Shakhnoza, Tuyboeva. "Types of sentences and constructions in French." *Gospodarka i Innovacje*. 42 (2023): 736-740.
9. Туйбоева, Шахноза. "O‘zbek va fransuz sistem tilshunosligida sodda gap qurilishi talqini." *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)* 8.8 (2021).
10. Жўраева, М. (2022). POUR UNE ANALYSE FONCTIONNELLE ET DISCURSIVE DES TITRES DE LA PRESSE FRANCAISE. *Educational Research in Universal Sciences*, 1(7), 422-428.
11. Boltayevna, Ikromova Lola. "EXPRESSION OF SEASONS IN FRENCH PROVERBS AND SAYINGS AND THEIR EQUIVALENTS IN UZBEK." *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769) 2.1 (2024): 458-461.
12. Ikromova, Lola. "Scientific and theoretical views about the description of the notion Frame in Linguistics." *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)* 1.1 (2020).
13. Nasimova, Fotima. "Fransuz va o ‘zbek tillarida intonatsiyaning uslubiy xususiyatlari." *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)* 42.42 (2023).



**MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATIONS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

**BUKHARA STATE UNIVERSITY**

**FRENCH PHILOLOGY DEPARTMENT**



**“Issues and challenges of modern linguistics in new Uzbekistan: Linguoculturological, pragmalinguistic, neuropsycholinguistic and linguofolkloristic approaches”**



**INTERNATIONAL SCIENTIFIC & THEORETICAL CONFERENCE**

April 16-17, 2024  
Bukhara

**Participating Higher Education Institutions countries**

Uzbekistan, France, Great Britain, Russia, China, Cameroon, Germany, Italy, Spain, Belgium, South Korea, Kazakhstan, Tajikistan, Kyrgyzstan





1930

**BUKHARA  
STATE  
UNIVERSITY**



